

**1 – mavzu: Kirish. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari**

**Reja:**

1. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish – dolzarb masala
3. O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishning metodologik tamoyillari
4. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining komil inson tarbiyasidagi o‘rni va roli.

▶ Tarixiy xotira - milliy o‘ziga xoslikni tarixan idrok etishda asos bo‘lib xizmat qildi. Ma’lumki, tarixiy xotira xazinasini millat taraqqiyotiga yordam beradigan milliy ongning samarali kuchi sifatida ona tiliga, turmush tarziga, urf-odatlariga va madaniyatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Bu shunchaki ma’naviy merosni saqlab qolish uchun tarixiy qadriyatlarni jalb qilish emas, balki ma’naviy yuksalish yo‘lini boshlash uchun xalq o‘zining ko‘p asrlik tarixiga, ming yillik madaniy tajribasiga, buyuk ajdodlari merosiga murojaat qilishi va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qanday ma’naviy-axloqiy boyliklar bilan kirishi kerakligini anglatadi.

**Tarixiy xotirasini  
yo'qotgan xalq  
bamisoli ildizi  
kesilgan daraxtdek  
tezda qurib bitadi.**



**U dunyodagi  
kurash va  
musobaqalarg  
a dosh  
berolmaydi.**

- Milliy ma`naviy qadriyatlar tizimida *tarixiy meros* va *tariosiy xotira* muhim o`rin tutadi. Ma`naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko`tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o`rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.
- O`zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo`shgan millatlar qatoridan faxrli o`rinni egallaydi. *Madaniy yodgorliklar, me`morchilik san`ati namunalari, qadimiy qo`lyozmalar* — milliy ma`naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrlı va muqaddas bo`lgan boyliklardir. Bularni avaylabasrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma`naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.



- ▶ O‘zbekiston tarixi, shuningdek, O‘zbekistonning eng yangi tarixi jahon
- ▶ tarixining ajralmas bir qismi bo‘lib, u bizning zamonamizdagi global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Eng yangi tarixni o‘rganishning muhimligi va dolzarbligi shundaki, u mamlakatimizning ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy–ma‘naviy jihatdan barqaror rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi voqea–xodisalarni tushunishga hamda teran idrok etishga yordam berishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, u bizga tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini oldindan ko‘ra bilish va bashorat etish imkoniyatini beradi.

- ▶ Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni sobiq sovet hududidagi boshqa mamlakatlar singari murakkab siyosiy o'zgarishlar sharoitida yuz berdi. Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi mamlakatning barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tubdan o'zgartirishga yo'l ochdi.
- ▶ Demokratik prinsiplarga ko'ra milliy davlatchilik va siyosiy tizimning asoslari shakllantirildi, ularda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari funksiyalari va vakolatlari taqsimlandi. Respublikaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini erkinlashtirish bosqichma-bosqich, keskin inqilobiy larzalarsiz amalga oshirildi.

- ▶ Tashqi siyosatning milliy strategiyasi ishlab chiqilib, O‘zbekiston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga munosib ravishda kira oldi.
- ▶ O‘zbekiston tanlagan mustaqil taraqqiyot yo‘li xalqimizning milliy xususiyatlari, urf–odatlari va madaniyatini har tomonlama hisobga olgan holda, to‘plangan xalqaro tajribadan ijodiy foydalanishga asoslangandir.

# Birinchi bosqich

- ▶ 1989 yildan 1991 yilgacha. Bu bosqich – yangi rahbarning siyosat maydonida paydo bo‘lishi, milliy istiqlol g‘oyasining pishib etilishi, SSSRning parchalanib ketishi negizida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bilan bog‘liq sa‘y–harakatlar bilan tavsiflanadi.



# Ikkinchi bosqich

- ▶ 1991 – 2000 yillar. Bu – ustuvor islohotlar va o‘zgarishlardan milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri. Tarixan qisqa vaqt ichida "taraqqiyotning o‘zbek modeli" ni tanlab olish natijasida milliy davlat shakllanishi uchun ishonchli qonunchilik va huquqiy asos yaratildi. Davlat boshqaruvining yangi tuzilmalari yuzaga keldi, jamoat va fuqarolik institutlarining asoslari barpo etila boshlandi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish amalga oshirildi.

# Uchinchi bosqich

- ▶ 2001–2010 yillar. Bu bosqichda – mamlakatni faol demokratik yangilash va modernizatsiya qilish boshlandi. Bu davrning asosiy vazifasi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma–bosqich o‘tish edi. Shu negizda siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish va liberallashtirish, davlat va jamiyat qurilishi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan, fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshiradigan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantiradigan mustaqil sud tizimini mustahkamlash jarayonlari davom etdi.

# To'rtinchi bosqich–2010–2016

- ▶ Bu bosqichda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va modernizatsiya qilish jarayoni davom etdi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud–huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so‘z erkinligini ta‘minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo‘yicha islohotlarning huquqiy asoslarini yaratish bilan tavsiflanadi.

# Beshinchi bosqich–h.v.

- ▶ O‘zbekistonning zamonaviy tarixining beshinchi bosqichi 2017 yildan boshlandi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu tarixiy hujjat mustaqillikni qo‘lga kiritilganidan boshlab, mamlakatni demokratik yangilash va rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni rivojlantirishni aks ettiradi, unda davlat va jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida modernizatsiyani yanada davom ettirishning strategik dasturi belgilab berilgan.
- ▶ Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud–huquq tizimini, axborot sohasini isloh qilish, so‘z erkinligini ta‘minlash, saylov qonunchiligini rivojlantirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish bo‘yicha islohotlar uchun huquqiy asoslarni yaratishni davom ettirish bilan tavsiflanadi.

# «Yangi O'zbekiston»ning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi

CERR

Пул-кредит сиёсати, бюджет-солиқ сиёсати ва таркибий ислохотларни ўзаро мувофиқлаштириш



Худудларнинг мутаносиб ривожланишини таъминлаш ва ишлаб чиқариш қувватларини самарали жойлаштириш

## МАКРОИҚТИСОДИЙ



ЯИМ ҳажмининг ошиши  
**\$100** млрд.

2023-2025йй.



ЯИМнинг ўртача йиллик ўсиш суръати  
**6,5%**

Аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулот  
5 йил ичида

**1,6** баробар ортади

“ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН” СТРАТЕГИЯСИ  
2022 МАКРОИҚТИСОДИЁТ 2026

**»\$4 000**

2030 йилга келиб ўртачадан юқори даромадли мамлакатлар қаторидан жой олиш

## БАРҚАРОРЛИК



2024 йилдан бошлаб инфляцияни  
**5** фоиздан паст даражада ушлаб туриш



Иқтисодийтни кредитлашнинг йиллик ўсиш суръатлари  
**16-18%**



## Давлат бюджети

тақчиллигини камайтириш ва уни ЯИМнинг **3%** дан паст даражада бўлишини таъминлаш

Дастурий бюджетлаштириш тизимига ўтиш



- 2022 йилдан бошлаб **40 та вазирлик ва идораларнинг** бюджет маблағларидан фойдаланиш харажатлари бўйича мақсадли кўрсаткичларини тасдиқлаш ҳамда уларнинг расмий веб-сайтларида ҳисоботларни эълон қилиш.



## Фуқаролар учун бюджет

- Хар бир туман бюджетининг **5 фоизи** аҳоли таклифларидан келиб чиққан ҳолда долзарб масалаларни ҳал этишга йўналтирилади.
- Ички йўлларни таъмирлаш учун ажратилган маблағнинг **50 фоизи** жамоатчилик фикридан келиб чиқиб тақсимланади



## Давлат қарзини самарали бошқариш

Давлат қарзини бошқариш стратегиясини ишлаб чиқиш

**4,5** йиллик ташқи қарз миқдорини **миллиард долларга** чеклаш

**60** Давлат қарзи ялпи ички маҳсулотнинг **фоиздан** ошмаслиги

# Shavkat Mirziyoyev: Tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz



# Milliy tarixni o'rganish masalasi davlat rahbarlari e'tiborida



➤ **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori 2017 yil 30 iyunda qabul qilingan.**



## *O‘ZLIKNI ANGLASH – TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI*



➤ demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning «o‘zbek modeli» mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni saqlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O‘zbekistonning roli va o‘rnini chuqur o‘rganish va yaqqol ochib berish ushbu fanning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

## *O‘ZLIKNI ANGLASH – TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI*



➤ Ilmiy, o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O‘zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O‘zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishni ta’minlash belgilab berilgan.

## *O‘ZLIKNI ANGLASH – TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI*



Fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, yuksak ma’naviyat, xalqning tarixiy an’analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirish borasida ushbu jarayonlarning rivojlanish evolyutsiyasini ma’ruza va amaliyot darslarida ochib berish muhim sanaladi.

# O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANI

## Predmeti



- mamlakatimiz mustaqillik yillarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar yaxlitlik, uzviylik va o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi

## Ob'ekti



- Mustaqilliy yillarida mamlakatimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar;
- davlat boshqaruv shakllari va evolyutsiyasi;
- ishlab chiqarish kuchlari va vositalarining takomillashib borishi;
- ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi;
- diplomatiya va elchilik aloqalari va boshqalar

# *O'zbekiston tarixi fanining maqsad va vazifalari*

## **Maqsadi**

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitish orqali o'quvchilar mustaqillik yillarida yurtimizda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilishga o'rganadi, mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari, sabab va oqibatlarini tushunib hamda ochib berish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatlarini yuksaltirish ajdodlar an'analariga sadoqat, milliy o'zlikni anglashga o'rgatish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

## **Vazifalari**

O'zbekiston tarixi fani jahondagi ilg'or, taraqqiyparvar, demokratik kuchlar hamda davlatlarning tajriba-larini umumlashtirish asosida xalqimizda yangicha ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash madaniyatini shakllantirish, taraqqiyotning umum e'tirof etilgan tamoyillariga asoslangan yo'llarini to'g'ri belgilab olishga ko'maklashish, o'tmish xatolarini takrorlamaslik, ulardan zarur saboqlar chiqarish, taraqqiyotga, millat kelajagiga xavf soluvchi asosiy omillarni oldindan ko'ra olish va ularni o'z vaqtida bartaraf etish, qo'shni va dunyo xalqlari bilan hamjihatlikda, tinch totuv yashashini ta'minlash

# Fanning maqsad va vazifalari

## Maqsadi

O'zbekistonning eng yangi tarixi haqida so'z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991 yildan keyin bosib o'tgan tarixiy yo'li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim.

## Vazifalari

O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o'rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rnini va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l - yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo'l - mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish.

# Fanning maqsad va vazifalari

## Maqsadi

O'zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o'zini o'zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig'inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an'anaviy funksiyalar bajarilishining o'zi bilan qanoatlanib bo'lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to'ldirishimiz maqsadga muvofiqdir.

## Vazifalari

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalar qatorida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o'zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog'liq masalalarning to'g'ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazish burchimizdir.

## ***O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O‘RGANISH- DOLZARB MASALA***



➤ Shu kungacha O‘zbekistonning eng yangi tarixi chuqur va har tomonlama chuqur tadqiq etilgan emas. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar to‘laqonli bajarilmaganligi sababli ilm-fanning ta’lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlari yetarli darajada faollashmadi. Kengashning ishchi organi – O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz cheklangan imkoniyatlari sabab bu davr bo‘yicha mavjud adabiyotlarni qayta ko‘rib chiqishni talab darajasida amalga oshirmadi. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixi bo‘yicha zamonaviy chet el ilmiy va o‘quv adabiyotlarini o‘rganish va tahlil etish mohiyat jihatidan qoniqtirmaydi.



## ***O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI***



- **Tarixiylik tamoyili** deganda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tarixiy jihatdan davriy ketma-ketlikda, o'zaro aloqadorlikda, yaxlit tarixiy jarayon sifatida, o'rganilayotgan zamon ruhi, axloqiy va huquqiy me'yorlari, hayot mezonlari nuqtai nazaridan talqin qilish va sharhlash tushuniladi.
- **Xolislik tamoyili** o'rganilayotgan tarixiy jarayonlar xolis va betaraf o'rganilishini, voqea va hodisalarni biror g'oya yoki mafkura nuqtai nazaridan sharhlamaslikni, tarixiy jarayonlarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish va o'rganishni, yutuqlar bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklardan ham ko'z yummaslikni, tarixni bayon qilishda ehtirolarga berilib ketmaslikni, tadqiqotchining g'oyaviy, siyosiy, mafkuraviy, diniy qarashlari, milliy mansubligi ustunlik qilmasligini, bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslikni, voqealarni tahlil qilishda bugungi kun nuqtai nazaridan yondashmaslikni, manbalarga tanqidiy munosabatda bo'lib, boshqa zamondosh manbalar bilan tasdiqlangan dalillargagina tayanishni, dalillarni soxtalashtirmaslikni, ertak va afsona elementlaridan xoli bo'lishni anglatadi.

➤ **Manbalar bilan asoslanganlik tamoyili:** bayon qilinayotgan tarixiy jarayon, keltirilayotgan har qanday faktlar chinakam ilmiy va asl manbalarga asoslangan bo'lmog'i lozim. Manbadagi xabarning haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi manbaga zamondosh bo'lgan boshqa manbalar ma'lumotlari bilan, agar ular mavjud bo'lmasa arxeologiya, numizmatika singari yordamchi tarix fanlari ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

➤ **O'zbekistonning eng yangi tarixining mintaq va jahon tarixi bilan bog'liqligi tamoyili:** har bir xalqning tarixi alohida ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga ular umuminsoniyat tarixining ajralmas va uzviy tarkibiy qismini tashkil etadi. O'zbekiston tarixini umumjahon tarixining bir bo'lagi, ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

➤ **Milliy qadriyatlar, xalq an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va tarixiy-madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan yondashish tamoyili:** har bir tarixiy voqea va hodisani o'rganishda milliy hamda mahalliy xususiyatlar, ya'ni har bir millat va elatning tili, dini, yashash hududi, ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish usuli, ruhiyati, urf-odatlar, rasm-rusum va an'analari va marosimlarini o'rganilayotgan davr axloqi nuqtai nazaridan to'la anglagan va har tomonlama hisobga olgan holda munosabatda bo'lish nazarda tutiladi.

# *O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish*

O'zbekiston tarixini davrlashtirishning bir necha usullari mavjud. Arxeologik davrlashtirish, tarixiy davrlashtirish, asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish usuliga ko'ra davrlashtirish, sulolaviy davrlashtirish va boshqalar

Mustaqillik arafasida sobiq sovet davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va madaniy rivojlanishi.  
Qayta qurish  
Paxta ishi  
Milliy o'zlikni anglash

Davrlashtirish

- *O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi*
- *O'zbek modeli*
- *O'tish davri*
- *O'zbekistonda davlat hokimiyatining shakllantirilishi*
- *1991-2016 yillardagi umumiy tarixiy vaziyat*

2016 yil va yangi O'zbekiston jamiyatini qurish yo'lidagi islohotlar  
2012-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish  
STRATEGIYASI

**1** Инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш

**2** Мамлакатимизда адолат ва қонун устуворлиги тамойилларини тараққиётнинг энг асосий ва зарур шартига айлантириш

**3** Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш

**4** Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капитални ривожлантириш

**5** Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш

**6** Миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда умумбашарий муаммоларга ёндашиш

**7** Мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очик, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш



*Yosh avlod ongida fuqarolik pozitsiyasi va tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim masala*



➤ Sobiq tuzum davrida davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini oʻrnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanganligi, boshqaruvning maʼmuriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi koʻp odamlarda chorasizlik tuygʻusini uygʻotib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. “Siyosiy autsayderlar” deb ataluvchi kishilar sonining oʻsishi, jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab boʻldi. Bugun bu kabi kishilarning mavjudligi yangi Oʻzbekistonning har taraflama taraqqiy etishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini oshirish va ularda ona vatanga daxldorlik hissini uygʻotish ushbu fanning muhim jihatlardandir.



# Barkamol avlod-kelajak poydevori



# Intellectual va siyosiy elitaning davlat va jamiyat ravnaqidagi o'рни va roli





- ▶ Dunyoni mafkuradan soqit bo‘lgan ko‘zlar bilan ko‘ra oluvchi yangi avlod vakillariga tayangan holda islohotlarni amalga oshirish yanada mustahkam poydevor yaratishi mumkin. Aholi, siyosiy va intellektual elita tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar iste’molchisi sifatida o‘zini namoyon qilishi, bo‘ysinuvchi roldan xalos bo‘lishi kerak.



**G'oyaviy**

**mafkuraviy**

**ahloqiy**

**Ma'naviyatda  
qarashlar**

**Ma'rifiy**

**diniy**

**madaniy**

# Шахс маънавияти ва таълим-тарбия уйғунлиги

Илм даргоҳлари

Илм-  
маърифат

таълим

тарбия

руҳий покланиш,  
қалбан улғайиш

**янги таълим  
моделли ва  
«портлаш  
эффекти»**

онгни ўзгартириш

шахс

таълим-тарбия  
умуммиллий масала

мустақил  
фикрловчи,  
билимли ва  
замонавий авлод

Кадрлар тайёрлаш  
миллий дастури,  
Таълим тўғрисидаги  
қонун

# ШАХС МАЪНАВИЯТИ ВА АҲЛОҚ

## Тарихий илдишлар

шахс

жамоавийли  
к

ҳалоллик

Қадриятларни  
қадрлаш

Меҳр-оқибат

Меҳр-муҳаббат

Ҳамкорлик, оғоҳлик

Қадр-қиммат

толерантлик

саҳоват

Таълим тарбия  
тизими


маҳалла

Янги авлод

# Миллий ўзликни англаш ва шахс маънавияти



# Мафкуравий иммунитет ва маънавий тарбия



узлуксиз  
таълим-  
тарбия онг

ёшлар онгини  
ўзгартириш

маҳсули

ЯНГИ  
ислоҳотлар

МИЛЛИЙ  
ўзликни  
англаш

Янги таълим-тарбия  
моделли

Мафкуравий  
иммунитет

ОИЛА, МАҲАЛЛА,  
ТАЪЛИМ  
ДАРҒОҲИ

шарқона  
тарбия



**Маънавиятни  
англаш**

**Маънавиятни  
шакллантирувчи  
асосий мезонлар**

**Миллий ғурур  
Миллий руҳ**

**Таълим-тарбия  
ва шарқона  
қараш**

**Дахлдорлик  
туйғуси**

**Кадрлар тайёрлаш  
миллий дастури**

**Юксак маънавиятли  
шахс**

**Мафкуравий  
иммунитет**

**Оила ва маҳалла**

**Мустақил фикр**

**Глобал  
тармоқларда  
мафкуравий  
тарғибот**



Эътиборингиз учун  
раҳмат